BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

UMAROVA RUZIGUL SHERALIEVNA

BERUNIY NATURFALSAFASI (FALSAFIY-SINERGETIK TAHLIL)

09.00.03 – Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101(575.1)(091)

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophical sciences (DSc)

Umarova Ruzigul Sheralievna
Beruniy naturfalsafasi (falsafiy-sinergetik tahlil).....3

Умарова Рузигул Шералиевна
Натурфилософия Беруни (философско-синергетический анализ)... 33

Umarova Ruzigul Sheralievna
Natural Philosophy of Beruni (philosophical-synergetic analysis) 67

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published.....73

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

UMAROVA RUZIGUL SHERALIEVNA

BERUNIY NATURFALSAFASI (FALSAFIY-SINERGETIK TAHLIL)

09.00.03 – Falsafa tarixi

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.DSc/Fal392 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Turaev Baxtiyor Omonovich** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Navruzova Gulchixra Nigmatovna** falsafa fanlari doktori, professor
	Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna falsafa fanlari doktori, professor
	Shamsiddinova Nigina Karimovna falsafa fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "2" dekabr soat 1300 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1158 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "13" noyabr dagi 46 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global inqirozlar va ilm-fan oldida turgan fundamental masalalar, global muammolarni yaxlit holda koʻrib chiqish, axborot asrida feyk maʼlumotlar, ilmiy natijalarni siyosiylashtirish, milliy va mafkuraviy tarafkashlik avj olayotgan sharoitda tabiat va inson munosabatlarini ilmiy asosda tushuntirish, hodisalarni oʻrganishda dalillarga tayanish hamda ilmiy bilimlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarning tarixiy-falsafiy asoslarini aniqlashda mutafakkirlar merosini tadqiq etish, falsafa tarixini zamonaviy metodologik tamoyillar asosida qayta koʻrib chiqish, turli sivilizatsiyalar sharoitida shakllangan ilmiy-falsafiy merosni xolis va tizimli tahlil qilish jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning naturfalsafiy taʼlimoti – borliq, shakl, substansiya, harakat va vaqt haqidagi qarashlari yaxlit tizim sifatida oʻrganish, uni sinergetik metodologiya asosida talqin qilish va falsafiy bilimlar tizimiga integratsiyalash hamda ilmiy mazmunini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida Beruniy merosining manbashunoslik, tabiiy-ilmiy va tarixiy-falsafiy jihatlarini oʻrganish, uning naturfalsafiy qarashlari mazmunini aniqlashtirish, tarixiy kontekstda tahlil qilish, tabiiy-ilmiy izlanishlari bilan falsafiy umumlashtirishlari oʻrtasidagi bogʻlanishni ochib berishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Abu Rayhon Beruniy merosini boshqa mualliflarning qarashlaridan farqlash, nazariy farazlarning daliliy asoslarini aniqlash hamda tabiatni bilish usullarini oʻzaro aloqadorlikda oʻrganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun Beruniy naturfalsafasini tarixiy manbalar asosida rekonstruksiya etish, uning qarashlarini sinergetik yondashuv asosida retrospektiv talqin qilish va zamonaviy ilmiy paradigmalarga yaqin jihatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda buyuk ajdodlar ilmiy-falsafiy merosini oʻrganish, uning mazmunini manbalar asosida yoritish va taʼlim jarayoniga tatbiq etishga oid chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, uning milliy ilmiy tafakkurni rivojlantirish uchun ahamiyati asoslanmoqda. “Birinchi Renessans davrida yashab faoliyat koʻrsatgan Ibn Sino, Abu Sahl al-Masihiy, Sharafiddin ibn Abdulloh Iloqiy singari ulugʻ mutafakkirlarimizning amaliy tibbiyot, kasallikning oldini olish va inson ruhiyatiga bagʻishlangan oʻnlab asarlari, Abu Nasr Forobiy, Husayn Voiz Koshifiyning nazariy tibbiyotga oid, Abu Mansur Qamariyning tashxislash sohasidagi ilmiy merosi, Abu Rayhon Beruniy, Najibuddin Samarqandiyning farmatsevtika va dorishunoslik yoʻnalishidagi benazir asarlari oʻtmishda ham, hozirgi paytda ham dunyo tibbiyotida olamshumul kashfiyotlarga zamin boʻlib xizmat qilmoqda”[1]. Shu bois Beruniyning ilmiy qarashlarini tarixiy sharoit va manbalar bilan bogʻliq holda tushuntirish, tabiiy-ilmiy va falsafiy bilimlar aloqadorligini yoritish hamda dalillarni qiyoslash va xulosalarni asoslashga oid tarixiy tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari

[1] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Тошкент: “Oʻzbekiston”, 2024. – Б.179.

doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Sharq peripatetizmi, islom sivilizatsiyasida fan va naturfalsafa genezisi, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-falsafiy merosi, mutafakkir dunyoqarashining ontologik va gnoseologik asoslari, koinot evolyutsiyasi, moddiy borliqning tuzilishi, tabiatdagi dinamik jarayonlar, o‘z-o‘zini tashkillash mexanizmlari hamda ochiq murakkab tizimlarning falsafiy-sinergetik tahliliga yo‘naltirilgan tadqiqotlar jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, Max Planck Institute for the History of Science (Germaniya), Laboratoire SPHERE (CHSPAM) – CNRS / Université Paris Cité (Fransiya), Department of the History of Science, University of Oklahoma (AQSH), Center for Middle Eastern Studies, Harvard University (AQSH), Institute of Islamic Studies, McGill University (Kanada), Institute of Arab and Islamic Studies, University of Exeter (Buyuk Britaniya), İstanbul Medeniyet Üniversitesi (Turkiya), Institute of Philosophy, Russian Academy of Sciences hamda S.I. Vavilov Institute for the History of Science and Technology, RAS (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi

[2] Ushbu bo‘limni yoritishda quyidagi manbalardan foydalanilgan: https://www.mpiwg-berlin.mpg.de/; https://sphere.cnrs.fr/; https://www.ou.edu/cas/hos; https://cmes.fas.harvard.edu/; https://www.mcgill.ca/islamicstudies/; https://www.exeter.ac.uk/; https://www.medeniyet.edu.tr/; https://iphras.ru/; http://ihst.ru/; https://beruni.uz/; https://nuu.uz/; https://www.samdu.uz/; https://tsuos.uz/.

Oʻzbekiston Milliy universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat transport universiteti (Oʻzbekiston)da amalga oshirilmoqda.

Sharq allomalari tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi, Abu Rayhon Beruniyning naturfalsafiy qarashlari, uning oʻrta asrlar falsafiy tafakkuri va fan metodologiyasi rivojidagi oʻrnini, shuningdek tabiiy jarayonlarning nochiziqli, sinergetik xususiyatlarini oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar natijasida qator muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, Beruniy va Ibn Sino oʻrtasidagi naturfalsafiy munozaralar tahlili asosida mutafakkirning Aristotel fizikasiga tanqidiy munosabati, xususan, fazo, boʻshliq hamda harakatning nochiziqliligi borasidagi ilgʻor gʻoyalari konseptual jihatdan asoslangan (Laboratoire SPHERE, CNRS); oʻrta asrlar islom sivilizatsiyasida astronomiya, kosmologiya va tabiatshunoslik taraqqiyotida Beruniyning empirik-matematik uslubi, uning tabiat qonuniyatlarini induktiv tushuntirishdagi fundamental oʻrni tizimlashtirilgan (University of Oklahoma); tabiiy fanlar va falsafa sintezi, materiya strukturasi, fazoviy-vaqtiy oʻzgarishlar va qadimgi kosmologik modellarning evolyutsion xususiyatlari ochib berilgan (Max Planck Institute for the History of Science); Beruniyning “Geodeziya” va “Mineralogiya” asarlari asosida Yer geologik qatlamlarining davriy oʻzgarishi, quruqlik va dengizlarning oʻrin almashishi kabi global dinamik jarayonlar zamonaviy oʻz-oʻzini tashkillovchi dissipativ tizimlar konsepsiyasi bilan qiyosiy tadqiq etilgan (Институт истории естествознания и техники им. С.И. Вавилова РАН); Beruniy asarlarida sababiyat, tasodifiylik va determinizm kategoriyalarining oʻzaro nisbati, allomaning tabiiy hodisalarni ehtimolli-statistik tushunishga oid qarashlari falsafiy tahlil qilingan (Институт философии РАН); oʻrta asrlar islom naturfalsafasida materiya, substansiya, shakl va harakat tushunchalarining evolyutsiyasi, Beruniyning tabiat hodisalarini oʻrganishdagi sintezlovchi yondashuvi ochib berilgan (İstanbul Medeniyet Üniversitesi); Beruniyning “Hindiston” va “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida tabiiy muhit, iqlimiy davriylik va insoniyat jamiyati rivojining oʻzaro uygʻunligi falsafiy-antropologik nuqtayi nazardan asoslangan (McGill University); Sharq naturfalsafasi taraqqiyotida Beruniyning tabiiy-falsafiy qarashlari, uning empirik kuzatish, ratsional mushohada va koinotning ichki oʻz-oʻzini rivojlantiruvchi qonuniyatlariga tayanuvchi epistemologik tizimi Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Oʻzbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat transport universiteti (Oʻzbekiston) olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

Jahonda Abu Rayhon Beruniy naturfalsafiy merosi va uning falsafiy-sinergetik jihatlarini tadqiq etish boʻyicha qator ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: oʻrta asrlar Sharq naturfalsafasining genezisi, evolyutsiyasi va paradigmalari; Beruniy naturfalsafiy dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir koʻrsatgan manbalar va mutafakkirning peripatetik an’anaga kiritgan konseptual yangiliklari; Beruniy va Ibn Sino bahslarida moddiy borliq, fazo, vaqt, boʻshliq (vakuum) va harakat masalalarining falsafiy talqini; tabiatdagi oʻz-oʻzini tashkillash, davriylik, geodinamik fluktuatsiyalar va dissipativ jarayonlarning zamonaviy sinergetik modellar prizmasidagi konseptual talqini; Beruniyning ilmiy-falsafiy

metodologiyasida empirizm, matematik modellashtirish va induktiv bilishning uzviy sintezi; ochiq va nochiziqli tizimlarda determinizm, ehtimoliylik va tasodifiylik kategoriyalarining o‘zaro mutanosibligi; Beruniy naturfalsafiy qarashlarining zamonaviy postnoklassik fan falsafasi, evolyutsion-sinergetik dunyoqarash va umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi ilmiy-metodologik ahamiyatiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Abu Rayhon Beruniy merosi, uning naturfalsafiy qarashlari hamda matematika, astronomiya, geodeziya, mineralogiya kabi sohalarga qo‘shgan hissasi xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan faol o‘rganilmoqda. Bu tadqiqotlarda alloma merosi asosan fan tarixi, manbashunoslik va qiyosiy falsafa yo‘nalishlarida tahlil qilinadi. AQShda E.S.Kennedi Beruniy ilmiy merosining sharhini, S.H.Nasr kosmologik qarashlarini Ixvon as-safo va Ibn Sino ta’limotlari bilan qiyosiy tahlil qilgan, A.I.Sabra yunon ilmining islom olamida o‘zlashtirilishi, J.Al-Xalili Beruniyning Yer radiusini o‘lchash usuli va moddalarning solishtirma og‘irligini aniqlashga oid ishlarini yoritgan. R.Rashed Beruniy davri astronomiyasi, matematikasi va geografiyasining ilmiy asoslarini, G.Shtromayer Beruniy asarlaridan tanlangan matnlarni nemis tiliga tarjima qilib, sharhlar bilan nashr etgan. Beruniy va Ibn Sino o‘rtasidagi ilmiy yozishmalar R.Berjak va M.Iqbol tomonidan e’lon qilingan. M.Kozah Beruniyning “Hindiston” asarini tahlil qilib, uni hind falsafasini ilmiy o‘rganishning ilk namunasi sifatida baholagan. S.F.Starr Beruniyni Markaziy Osiyo ilm-fani “oltin davri”ning eng yirik vakillaridan biri sifatida ko‘rsatgan. A.Shprenger, T.de Bur, M.Meyerxof, E.Zaxau, Yusuf Ali, M.S.Xon, A.Korben kabilar manbashunoslik, tarixiy-tanqidiy va falsafiy yo‘nalishlarda tadqiqot olib borganlar[3].

[3] Kennedy E.S. Al-Bīrūnī // Dictionary of Scientific Biography / ed. C.C. Gillispie. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1970. – Vol. 2. – P. 147–158; Nasr S.H. An Introduction to Islamic Cosmological Doctrines. – Cambridge (Mass.): Belknap Press of Harvard University Press, 1964. Sabra A.I. The Appropriation and Subsequent Naturalization of Greek Science in Medieval Islam: A Preliminary Statement // History of Science. – 1987. – Vol. 25. – P. 223–243; Huff T.E. The Rise of Early Modern Science: Islam, China and the West. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993; Al-Khalili J. Pathfinders: The Golden Age of Arabic Science. – London: Allen Lane, 2010; AQSh nashri: The House of Wisdom: How Arabic Science Saved Ancient Knowledge and Gave Us the Renaissance. – New York: Penguin Press, 2011;Encyclopedia of the History of Arabic Science / ed. R. Rashed. – London; New York: Routledge, 1996. – Vol. 1–3;Strohmaier G. Al-Bīrūnī: In den Gärten der Wissenschaft. Ausgewählte Texte aus den Werken des muslimischen Universalgelehrten. – Leipzig: Reclam, 1988; Berjak R., Iqbal M. Ibn Sina – Al-Biruni Correspondence // Islam & Science. – 2003–2007. – Vol. 1–5;Kozah M. The Birth of Indology as an Islamic Science: Al-Bīrūnī’s Treatise on Yoga Psychology. – Leiden; Boston: Brill, 2016; Starr S.F. Lost Enlightenment: Central Asia’s Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2013. Розенфельд Б.А., Рожанская М.М., Соколовская З.К. Абу-р-Райхан ал-Бируни (973–1048). – М.: Наука, 1973.; Sprenger A. Al-Beruni’s India // Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. – Leipzig, 1889. – Bd. 43; De Boer T. Geschichte der Philosophie im Islam. – Stuttgart, 1901; Meyerhof M. Das Vorwort zur Drogenkunde des Beruni // Quellen und Studien zur Geschichte der Naturwissenschaften und der Medizin. – 1932. – Bd. 3, Heft 3; Alberuni’s India: An Account of the Religion, Philosophy, Literature, Chronology, Astronomy, Customs, Laws and Astrology of India about A.D. 1030 / ed. by E. Sachau. – London, 1888. – Vol. II; bu asar haqida qarang: Шарипов А. Великий мыслитель Абу Райхан Бируни. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – С. 68–72; Nasr S.H. An Introduction to Islamic Cosmological Doctrines. – Cambridge: Harvard University Press, 1964; Yusuf Ali. Al-Beruni’s “India” // Islamic Culture. – 1927. – Vol. 1; Khan M.S. Al-Biruni on Indian Metaphysics // Islamic Culture. – 1981. – July; Корбен А. История исламской философии / пер. с франц. и примеч. А. Кузнецова. – М.: Прогресс-Традиция, 2010. – С. 68-102

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan B.A.Rozenfeld, Yu.N.Zavadovskiy, A.V.Sagadeev Beruniy merosini o‘rta asr Sharq falsafasi va fan tarixi kontekstida tadqiq etganlar[4].

O‘zbekistonda Beruniy merosini tadqiq etishga I.Mo‘minov, U.Karimov, O.Fayzullayev, Sh.Sirojiddinov, G‘.Umarov, A.Axmedov, P.Bulgakov, V.Zohidov, M.Xayrullayev, A.Sharipov, B.Turayev, B.Karimov, M.Sharipov, R.Nosirov, J.Tulenov, H.Hasanov, R.Bahodirov, M.Usmonov, N.Komilov, M.Quronov, A.Zohidiy, Tohir Karim[5] kabi olimlar muhim hissa qo‘shgan. Ular Beruniyning jamiyat, ilm va ma’rifatga doir fikrlarini umumiy falsafiy kontekstda sharhlagan, ayrim hollarda uning dunyoqarashi va mantiqiy uslubiga doir original xulosalar berganlar. B.Turayev rahbarligida tayyorlangan “Sinergetika – 3: ma’naviy meros” jamoaviy monografiyasidagi maqolada alloma asarlarini sinergetik tahlil asosida tavsiflashga urinish qilingan va u Beruniy asarlariga sinergetik yondashuvning bir namunasi hisoblanadi. Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari S.Karimova, Q.Norxo‘jayev asarlarida yoritilgan. A.Qayumov, G.Navro‘zova, G.Ruzmatova, N.Shamsutdinova, P.Shermuxamedovning[6] ilmiy-ma’rifiy kitoblarida esa mutafakkirning hayot yo‘li va ijodi bayon qilingan. Keyingi yillarda Q.Narimanov,

4 Розенфельд Б.А. Бируни и его “Канон Масъуда”: предисловие к “Канону Масъуда” // Абу Райхан Бируни. Избранные произведения. Т. V, ч. 1. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 7–49; Завадовский Ю.Н. Абу Али Ибн Сина. Жизнь и творчество. – Душанбе: Ирфон, 1980. – 302 с.; Сагадеев А.В. Восточный перипатетизм. – М.: Издательский дом Марджани, 2009; Ахмедов Э. О структуре арабо-мусульманской философии средневековья // Философские науки. – 1977. – С. 107-116.

5 Mo‘minov I.M. Xorazmlik buyuk ensiklopedist olim. – Toshkent: Fan, 1973. – 50 b.; Mo‘minov I.M. Beruniy – fan tarixchisi // Beruniy tug‘ilgan kunining 1000 yilligiga bag‘ishlangan to‘plam. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 8–19.; Karimov U.I. Abu Rayhon Beruniy // Beruniy tug‘ilgan kunining 1000 yilligiga bag‘ishlangan to‘plam. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 19–31.; Sirojiddinov Sh.S., Ziyautdinova X.A. O‘rta Osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari. – Toshkent: O‘zR FA I. Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2007. – 60 b.; Файзуллаев А.Ф. Проблемы противоречия в трудах классиков естествознания и философии Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1974. – 148 с.; Falsafa va fanlar metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 341 b.; Умаров Г.Я. Беруни, Коперник и современная наука. – Ташкент: Фан, 1973. – 117 с.;Ахмедов А. Вступительная статья, перевод и примечания // Беруни Абу Райхан. Избранные произведения. Т. VI: Книга вразумления начаткам науки о звездах. – Ташкент: Фан, 1975. Захидов В.Ю. Аль-Бируни как мыслитель // Известия АН СССР. Серия истории и философии. – 1949. – Т. 6, № 2.; Xayrullayev M.M. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 237 b.; Шарипов А. Великий мыслитель Абу Райхан Бируни. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – 175 с.; Turaev B.O. Abu Rayhon Beruniy // O‘zbekiston – buyuk allomalar yurti. – Toshkent: Ma’naviyat – Movarounnahr, 2010. – B. 127–145. Насыров Р. Вопросы теории познания во взглядах прогрессивных мыслителей Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1988. – 120 с.; Karimov B.R. Вклад Беруни в научное и интеллектуальное развитие современной цивилизации // Abu Rayhon Beruniy merosi va hozirgi zamon sivilizatsiyasi. – Toshkent–Samarqand: Fan ziyosi, 2021. – B. 24–29; Sharipov M., Fayzixo‘jayeva D. Mantiq: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – B167.; Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 324 b.; Xasanov H. Sayyoh olimlar. – Toshkent: Fan, 1981. – 20 b.;Бахадиров Р.М. Из истории классификации наук на средневековом мусульманском Востоке. – Ташкент: Академия, 2000. – 244 с.; Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 324 b.; Усманов М.У. Философские взгляды Мухаммада Закария ар-Рази // Философское наследие народов Ближнего и Среднего Востока. – Ташкент, 1976. – С. 17–18.; Komilov N., Quronov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 410 b.;Zoxidiy A. Turkistonda o‘rta asr Arab-musulmon madaniyati. – Toshkent: GFNTI, 1993. – 120 b.; Tohir Karim. Milliy tafakkur tarixidan. – Toshkent, 2003. – 127 b.

6 Karimova S.U. IX–XI asr kimyo va dorishunoslik fanlari taraqqiyotida Markaziy Osiyo olimlarining o‘rni. – Toshkent: Fan, 2002. – 50 b.; Norxo‘jaev Q. Beruniy va uning geodeziya faniga doir ishlari. – Toshkent: Fan, 1973. – 23 b. Norxo‘jaev Q. Beruniy va uning geodeziya faniga doir ishlari. – Toshkent: Fan, 1973. – 23 b.; Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. – 240 b.; Navro‘zova G.N. Naqshbandiya – kamolot yo‘li. – Toshkent: Fan, 2007. – 189 b.; Ruzmatova G. Ruhiyat tahlili falsafasi. – Toshkent: Nishon-noshir, N. K. Shamsutdinova. Abu Ali ibn Sinoning tasavvufiy qarashlari. 09.00.03 – Falsafa tarixi. DSc диссертацияси. – Бухоро, 2025. 2014. – 240 b. Shermuxamedov P. Dahoning tug‘ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati: ilmiy-ma’rifiy qissa. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009. – 340 b.;

U.Qurbanova, B.Negmatov, M.Xandamova, G.Masharipova Beruniy ilmiy merosini maxsus tadqiq etib, uni o‘rganishda sinergetik metodologiyaga tayanishga ham intilganlar. F.Jo‘raqulov, G.Nosirxo‘jaeva, D.Fayzixodjaeva, D.Majidovlarning[7] tadqiqotlarida Beruniyning ilmiy-falsafiy ta’limotlari tahlil qilingan.

Beruniyning ilmiy-falsafiy merosi xorijlik, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari va O‘zbekiston olimlari tomonidan ma’lum darajada o‘rganilgan. Aksariyat tadqiqotlarda uning tabiat, borliq va harakat haqidagi fikrlari fragmentar tarzda yoritilgan. Ko‘rib chiqilgan manbalar tahlili mutafakkirning falsafiy dunyoqarashi, ayniqsa, naturfalsafiy tizimi to‘liq, tizimli va izchil tarzda tahlil etilmaganligini ko‘rsatmoqda. Uning naturfalsafiy qarashlaridagi tizimlilik, o‘zaro aloqadorlik va dinamiklik xususiyatlarini zamonaviy metodologiyalar yordamida retrospektiv tahlil qilish masalasi alohida tadqiqot predmeti sifatida ishlab chiqilmagan. Mazkur dissertatsiyada sinergetik metodologiya Beruniy terminologiyasining bir qismi sifatida qaralmaydi, u mutafakkir qarashlaridagi tizimlilik va dinamik aloqadorlikni zamonaviy nuqtayi nazardan retrospektiv sharhlashga xizmat qiluvchi yordamchi tahliliy vosita sifatida qo‘llanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abu Rayhon Beruniyning naturfalsafiy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Beruniy yashagan davr ilmiy-madaniy muhitini, uning mutafakkir naturfalsafiy qarashlari shakllanishi va rivojlanishidagi ta’sirini aniqlash;

Beruniy naturfalsafasining manbaviy asoslari, antik yunon, hind va musulmon Sharqi ilmiy-falsafiy an’analarining Beruniy naturfalsafasi shakllanishidagi o‘rnini qiyosiy tahlil qilish;

Beruniyning gnoseologik va metodologik qarashlarini hamda borliq, substansiya, nafs, hayula, harakat, makon va zamonga oid mulohazalarning ontologik mazmunini ochib berish;

---

7 Narimanov Q.G. Abu Rayhon Beruniy va Frensis Bekon gnoseologik-axloqiy konsepsiyalarining falsafiy - komparativistik talqini. PHD dissertatsiya avtoreferati, Toshkent, 2022. – 45b.; Kuranbayeva U/S/ Abu Rayhon Beruniy asarlarida Markaziy Osiyo, Eron, va Hindiston tarixi. PhD dis.avtoreferati. Toshkent, 2025. – 46b.; Negmatov B.M. IX–XII asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy jarayonlari qonuniyatlarining gumanistik mohiyati (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy misolida): falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 62 b.; Xandamova M.A. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari: falsafa fanlari doktori (DSc) … dis. avtoref. – Samarqand, 2021. – 64 b.; Masharipova G.K. Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 56 b.; Jo‘raqulov F.N. A.R. Beruniy tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G‘arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi: falsafa fanlari nomzodi … dis. avtoref. – Toshkent: O‘zR FA I. Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2007. – 27 b.; Насирходжаева Г. Проблемы историко-философской мысли в трудах Беруни: автореф. дис. … канд. филос. наук. – Ташкент: ТашГУ, 1999. – 26 с.; Fayzixodjaeva D.I. IX–XI asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining mantiqqa oid qarashlarida isbotlash muammolari: falsafa fanlari nomzodi … dis. avtoref. – Toshkent: O‘zR FA I. Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 1999. – 21 b.; Маджидов Д.Х. Натурфилософия Абу Райхана Бируни: автореф. дис. … канд. филос. наук. – Душанбе, 2015. – 26 с.

Beruniyning inson va jamiyat, ehtiyoj, mehnat va hamkorlik hamda tabiiy muhit va inson faoliyati munosabatlariga oid qarashlarining naturfalsafiy mazmunini sinergetik tahlil etish;

Beruniyning tabiiy sababiyat va inson taqdiri haqidagi qarashlarini tarixiy-falsafiy tahlil qilish orqali astronomik hodisalarning ilmiy izohi bilan munajjimlik bashoratlarini farqlashga doir yondashuvining nazariy-metodologik ahamiyatini ochib berishdaniborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-falsafiy merosi hamda uning naturfalsafiy mazmuniga oid boshqa olimlarning qarashlari va ilmiy tahlillari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Beruniy naturfalsafasining shakllanish omillari, bilish usullari, ontologik tushunchalarining mazmuni, tabiat, inson va jamiyat aloqadorligiga oid qarashlari hamda ularni falsafiy-sinergetik tahlil qilish imkoniyatlari va chegaralari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, komparativistik tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, diskursiv tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Beruniy tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari kuzatish, oʻlchash va tajriba natijalarini sababiy izohlashga, ontologik umumlashtirishning oʻzaro bogʻliqligiga tayangani, tabiat hodisalarini harakat va oʻzgarishda tushuntiruvchi yaxlit naturfalsafiy tizim ekanligi hamda sinergetik paradigmada tarkibiy bogʻlanishlar va dinamik munosabatlarning imkoniyatlari va qonuniyatlarni tarixiy qarashlarga bevosita koʻchirishning metodologik cheklovlari asoslab berilgan;

oʻrta asr musulmon falsafasidagi substansional va relyatsion konsepsiyalar bahsida Beruniyning tabiiyyun oqimi vakili sifatidagi oʻrni aniqlanib, uning boʻshliqning mavjud emasligi, olamning cheksiz boʻlishi mumkinligi va atomning boʻlinmasligi yetarli asoslanmaganligi haqidagi mulohazalari orqali substansional konsepsiyaga yangilik kiritgani asoslangan;

Beruniy ontologiyasida toʻrt unsur hamda Xudo, nafs (jon), hayula, makon va zamon tushunchalarining mos ravishda tabiiy jismlar tarkibi, yaratuvchi sabab, hayotiy faollik, birlamchi modda, jismlarning joylashuvi va jarayonlarning davomiyligini ifodalashdagi oʻzaro farqlanuvchi ontologik maqomi, ularning moddiylik, sababiyat va mavjudlik shartlari oʻrtasidagi munosabatlarni yorituvchi tarixiy-falsafiy mazmuni hamda tabiiy hodisalarning tarkibi, paydo boʻlishi va oʻzgarishini yaxlit tushuntirishdagi funksional ahamiyati ochib berilgan;

Beruniyning Ptolemey geotsentrik qarashlaridagi Yerning harakatsizligi haqidagi farazga tanqidiy munosabati va Yerning oʻz oʻqi atrofida aylanishi haqidagi mulohazalarining osmonning koʻrinma sutkalik harakatini muqobil izohlashga doir matematik hamda Yer harakatining fizik asoslarini aniqlash zaruratiga doir naturfalsafiy mazmunida empirik dalilga tayanish va muqobil tushuntirishlarni tanqidiy solishtirish uning naturfalsafiy pozitsiyasining asosiy tamoyillari sifatida dalillangan;

Beruniyning tabiat, inson va jamiyat oʻzaro aloqadorligi haqidagi tabiiy sharoitlar, inson ehtiyojlari va ongli faoliyatning oʻzaro ta’sirini ifodalovchi

qarashlari asosida inson taqdirini osmon jismlari holatiga bog‘lashga tanqidiy munosabati hamda inson hayotida aql, bilim va irodaning ahamiyatini e’tirof etishi astronomiya va munajjimlikni farqlashning naturfalsafiy asosi sifatida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Beruniy ilmiy-falsafiy merosidagi naturfalsafiy qarashlarni zamonaviy falsafiy tafakkur, ilmiy metodologiya va barqaror taraqqiyot konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish asosida tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni ifodalovchi falsafiy model ishlab chiqildi hamda u orqali inson faoliyatining axloqiy-me’yoriy va ilmiy-amaliy jihatlarini uyg‘un holda baholash mezonlari aniqlashtirilgan;

tabiatshunoslik fanlari, ekologik tafakkur va falsafa kurslariga Beruniy qarashlarini integratsiyalash orqali uning ilmiy merosini zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etishning fanlararo va didaktik uslubiy mexanizmlari, talabalarda intuitiv bilish, mantiqiy tahlil va ma’naviy mas’uliyatni uyg‘un tarzda shakllantirishning sinergetik va kognitiv imkoniyatlari asoslab berilgan;

sinergetik tafakkur metodologiyasi asosida ratsional va intuitiv bilimlarning integratsiyalashuvi, inson ongining ijtimoiy-madaniy va ilmiy faoliyatdagi o‘rni hamda tabiat bilan o‘zaro mutanosibligini asoslashda xizmat qiluvchi fanlararo integratsiyaga yo‘naltirilgan ilmiy-metodologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Beruniy naturfalsafasining zamonaviy axborotlashgan jamiyatdagi falsafiy-metodologik va aksiologik ahamiyati aniqlanib, insoniyatning texnologik taraqqiyoti bilan ma’naviy o‘sishi o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi evolyutsion-sinergetik va gumanistik metodologik yondashuvlarni kuchaytirish zarurati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlar, birlamchi manbalar va qo‘lyozma asarlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan xulosalardan Abu Rayhon Beruniy naturfalsafasining mohiyati tarixiy-falsafiy rekonstruksiya va falsafiy-sinergetik tahlil asosida ochib berishda, uning borliq, substansiya, makon, zamon, harakat va jon haqidagi ta’limoti yaxlit tizim sifatida tahlil qilishda, tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlikka oid qarashlarni zamonaviy tizimli tafakkur bilan qiyosiy talqin etishda, shuningdek, falsafa tarixi, ontologiya, fan falsafasi, Sharq falsafasi tarixi va o‘zbek milliy falsafasiga oid tadqiqotlarda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan Beruniy ilmiy-falsafiy merosini ta’lim jarayoniga tatbiq etish, yoshlarda ilmiy dunyoqarash, tanqidiy fikrlash va ekologik madaniyatni

rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv hamda ma’rifiy materiallar tayyorlashda, oliy ta’lim muassasalarida falsafiy fanlarini o‘qitishda, maxsus kurslar, ma’ruza matnlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, seminar va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini boyitishda, shuningdek, Beruniy merosini o‘rganish va targ‘ib etishga qaratilgan dasturlar hamda yo‘l xaritalari uchun tavsiyalar ishlab chiqishda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va ommaviy axborot vositalari uchun ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abu Rayhon Beruniy naturfalsafasini tarixiy-falsafiy va sinergetik tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Beruniy tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari kuzatish, o‘lchash va tajriba natijalarini sababiy izohlashga, ontologik umumlashtirishning o‘zaro bog‘liqligiga tayangani, tabiat hodisalarini harakat va o‘zgarishda tushuntiruvchi yaxlit naturfalsafiy tizim ekanligi hamda sinergetik paradigmada tarkibiy bog‘lanishlar va dinamik munosabatlarning imkoniyatlari va qonuniyatlarni tarixiy qarashlarga bevosita ko‘chirishning metodologik cheklovlariga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tasarrufidagi “O‘zbekiston 24”, “O‘zbekiston tarixi”, “Mahalla” va “Yoshlar” telekanallarida efirga uzatilgan “Minbar” va boshqa ko‘rsatuvlarning ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-44-557-son va 2025-yil 14-oktyabrdagi 15-33/767-son, “Mahalla” telekanalining 2025-yil 1-avgustdagi 01-16-198-son, “Yoshlar” telekanalining 2024-yil 14-oktyabrdagi 14-02-174-son ma’lumotnomalari). Natijada keng jamoatchilikning Beruniy ilmiy-falsafiy merosi, uning tabiat va borliqni bilish usullari haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qilgan;

o‘rta asr musulmon falsafasidagi substansional va relyatsion konsepsiyalar bahsida Beruniyning tabiiyyun oqimi vakili sifatidagi o‘rni aniqlanib, uning bo‘shliqning mavjud emasligi, olamning cheksiz bo‘lishi mumkinligi va atomning bo‘linmasligi yetarli asoslanmaganligi haqidagi mulohazalari orqali substansional konsepsiyaga yangilik kiritganiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlarning ta’lim, ilmiy-tahliliy va ma’rifiy faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 22-apreldagi 02/17-2786-son dalolatnomasi). Natijada tartib va barqarorlik, evolyutsiya va o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlarini falsafiy tahlil qilish imkoniyatlarini amaliyotga tatbiq etish, yoshlarda tizimli dunyoqarash, ma’naviy barqarorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan;

Beruniy ontologiyasida to‘rt unsur hamda Xudo, nafs (jon), hayula, makon va zamon tushunchalarining mos ravishda tabiiy jismlar tarkibi, yaratuvchi sabab, hayotiy faollik, birlamchi modda, jismlarning joylashuvi va jarayonlarning davomiyligini ifodalashdagi o‘zaro farqlanuvchi ontologik maqomi, ularning moddiylik, sababiyat va mavjudlik shartlari o‘rtasidagi munosabatlarni yorituvchi tarixiy-falsafiy mazmuni hamda tabiiy hodisalarning tarkibi, paydo bo‘lishi va o‘zgarishini yaxlit tushuntirishdagi funksional ahamiyatiga oid ilmiy-amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining 2026-yil 7-

apreldagi 01-04/97-son ma’lumotnomasi). Natijada yoshlarning ma’naviy tarbiyasi va ijtimoiy ongini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Beruniyning Ptolemey geotsentrik qarashlaridagi Yerning harakatsizligi haqidagi farazga tanqidiy munosabati va Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi haqidagi mulohazalarining osmonning ko‘rinma sutkalik harakatini muqobil izohlashga doir matematik hamda Yer harakatining fizik asoslarini aniqlash zaruratiga doir naturfalsafiy mazmunida empirik dalilga tayanish va muqobil tushuntirishlarni tanqidiy solishtirish uning naturfalsafiy pozitsiyasining asosiy tamoyillariga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining targ‘ibot ishlarida foydalanilgan (Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 3-sentyabrdagi 2-11-07-4731-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar ongida ekologik mas’uliyat, ijtimoiy uyg‘unlik va barqaror rivojlanish tamoyillarini mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonda yoshlarning ma’naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qilgan;

Beruniyning tabiat, inson va jamiyat o‘zaro aloqadorligi haqidagi tabiiy sharoitlar, inson ehtiyojlari va ongli faoliyatning o‘zaro ta’sirini ifodalovchi qarashlari asosida inson taqdirini osmon jismlari holatiga bog‘lashga tanqidiy munosabati hamda inson hayotida aql, bilim va irodaning ahamiyatini e’tirof etishi astronomiya va munajjimlikni farqlashning naturfalsafiy asosi sifatidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlar, ma’ruza va targ‘ibot materiallari, davra suhbatlari va seminarlar mazmunini boyitishda foydalanilgan (Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining 2026-yil 16-iyundagi 01-son dalolatnomasi). Natijada xodimlarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish, tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirish hamda milliy ilmiy merosga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 37 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (10 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, o‘n ikki paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 259 betni tashkil etadi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi

tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Beruniyning naturfalsafiy konsepsiyalari shakllanishidagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar va ilmiy-nazariy muhit”** deb nomlangan birinchi bobida IX-XII asrlardagi Yaqin va O‘rta Sharq, xususan, Markaziy Osiyodagi, ayniqsa, Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, madaniy yuksalish, Beruniyning hayoti, ilmiy merosi, falsafiy dunyoqarashining shakllanishi, uning tadrijoti, shuningdek, Xorazm “Ma’mun Akademiyasi”dagi faoliyati, ilmiy yo‘nalish va muammolar bo‘yicha tadqiqotlari, uning falsafiy tafakkur tarixida tutgan o‘rni hamda hozirgi zamon falsafasidagi sinergetik qarashlar tahlil etilgan.

Abu Rayhon Beruniy naturfalsafasi va uning falsafiy-sinergetik qarashlarining shakllanishiga Beruniy yashagan davrda Yaqin va O‘rta Sharqdagi iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liq, ochiq va dinamik tizim sifatidagi harakati hamda “Ma’mun Akademiyasi”ning faoliyati ta’sir ko‘rsatgan. Akademiyada fundamental fanlarning o‘nlab yo‘nalishlari bo‘yicha jahon ilm-fani, sivilizatsiyasi va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ilmiy kashfiyotlar va shoh asarlar yaratilgan. Abu Rayhon Beruniy ijodining muhim qismi ham ana shunday keskin tarixiy, siyosiy va harbiy o‘zgarishlar davri 997-1017-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu sharoit Beruniy dunyoqarashida barqaror va beqarorlikning bir vaqtda mavjudligini anglashga zamin yaratgan.

Dissertatsiyada Beruniyning hayot yo‘li, naturfalsafiy konsepsiyalarning rivoji, ilmiy ijodi va merosi, dunyoqarashi quyidagicha tadrijiy rivojlanish (evolyutsiya) bosqichlariga bo‘lib tadqiq etilgan:

I. Xorazm davri (973-1017 yy) – Xorazm “Ma’mun Akademiyasi”dagi faoliyati bo‘lib, Beruniyning hayot yo‘li va ilmiy dunyoqarashi bir qator o‘zaro bog‘liq, kaskadli va dinamik bosqichlar orqali shakllangan. 973-994-yillar bolalik, o‘smirlik va balog‘atga erishish davri. Beruniyning hayotga kirishi va undagi ilk intellektual rivojlanish jarayonlari o‘z vaqtida barqaror, ammo ichki ijtimoiy murakkablikka ega bo‘lgan Xorazm muhitida kechgan. Uning yetim bo‘lishi, feodal tizimdagi katta-kichik ijtimoiy farqlar va sharoitlar Beruniyning shaxsiy taraqqiyotida ijtimoiy faol muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchan dinamikani vujudga keltirgan. Keyinchalik 994-996 yillarda Rayga birinchi muhojirat. Bu davr Beruniyning faol hayot trayektoriyasida ilk katta sinergetik uzilish nuqtasi bo‘ldi. 997-998 yillarda esa Katga qaytish. Shayx-ur-Rais Ibn Sino bilan davomli yozma maktublar orqali ilmiy-falsafiy bahs-munozaralar. Bu davr Beruniyning ilmiy va falsafiy integratsiya jarayoni sifatida katta ahamiyatga ega. 999-1004 yillarda Gurganjga taklif etilishi va “Ma’mun Akademiyasi” davridagi ilk faoliyati. Bu bosqichda Beruniy turli sohalar olimlari bilan hamkorlikda ishlab, ko‘p sohali sinergetik tizim ichida faoliyat yuritdi. Akademiya Beruniy uchun intellektual sinergetik muhit bo‘lib xizmat qildi: bu yerda fanlar o‘zaro bog‘liq, ochiq va erkin rivojlandi. 1004-1010 yillar Gurganj – Xorazmshohlar davlat tasarrufidagi Jurjonga muhojirat. Jurjonga ko‘chish Beruniy

faoliyatida adaptiv muvozanat nuqtasi bo‘ldi. U faoliyatini yangi muhitda davom ettirib, ilm-fan bilan chuqur shug‘ullandi. Bu Beruniyning tashqi sharoitlarga moslashuvchan, lekin ichki barqaror intellektual tizim ekanligini ko‘rsatadi. 1010-1017 yillarda Gurganj-Xorazmshoh Abu-l-Abbos ibn Ma’mun davlat maslahatchisi, a’yoni, Xorazm “Ma’mun Akademiyasi” raisi. Bu davr Beruniyning intellektual yetakchilik va akademik boshqaruv bosqichi bo‘ldi. U Ma’mun Akademiyasiga rahbarlik qilib, barcha ilmlarning birlashuvini ta’minladi va sinergetik markaz sifatida xizmat qildi.

II. Beruniy hayoti, ilmiy ijodi va dunyoqarashining G‘azna davri (1018-1048 yy). G‘azna davri ham subbosqichlarga ega. 1018-1031 yillar G‘azna - Sulton Mahmud G‘aznaviy saroyidagi ilmiy faoliyat, Hindistonga ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etish. “Kitob-ut-tahdid” (Geodeziya)ning yaratilishi. 1031-1042 yillar Sulton Mas’ud ibn Mahmud G‘aznaviy huzurida “Hindiston”, “Al-Qonun al-Mas’udiy” va boshqa shoh asarlarni yozish. Bu bosqich Beruniyning falsafiy va tabiatshunoslik bilimlarining yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishi bo‘ldi. 1042-1048 yillar Sulton Mavdud G‘aznaviy huzurida ilmiy faoliyat: “Kitob as-saydana”, “Kitob al-jamohir” (Mineralogiya) va boshqa shoh asarlarning yozib tugatilishi. 1048-yil, 11-dekabr. O‘limi arafasida qozi Abu-l-Hasan Ali ibn Isa al-Valvolijiy bilan meros hisobi haqidagi suhbatdan so‘ng Beruniyning vafot etishi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, U.I.Karimov, P.G.Bulgakovlarning, shuningdek, dunyodagi dastlabki beruniyshunoslardan biri, Beruniyning izdoshi Ibrohim ibn Muhammad al-G‘azanfar at-Tabriziy at-Taflisiy ma’lumotlari hamda Beruniyning o‘zi tuzgan ma’naviy ustozi Abu Bakr Zakariyo ar-Roziy asarlari Fihristidagi ko‘rsatmalari bo‘yicha buyuk alloma 973-yil 4-sentyabrda Xorazmda so‘nggi Afrig‘iylar sulolasi poytaxti Kat shahri atrofida tug‘ilgan[8]. Hozirgi Qoraqalpog‘istonning Beruniy tumani markazi – qadimgi Afrig‘iy Xorazmshohlar poytaxti Kat Amudaryoning suvi toshib, yuvib ketgan va so‘nggi davrlargacha Avliyo-pir Shoh Abbos Valiy yoki Shabboz Ato nomi bilan atalib kelgan[9]. Beruniyning sabablari aniqlanmagan bolalik hayot yo‘li sarguzashtlari, shart-sharoitlari tufayli, u mazkur yillarda Katda taxtda o‘tirgan Afrig‘iy Xorazmshoh Muhammad ibn Iroqning amakivachchasi Abu Nasr Mansur ibn Iroq xonadonida tutingan o‘g‘il yoki shogird sifatida yashab, ulg‘aygan degan fikr mavjud. Beruniy o‘zining bizgacha yetib kelgan ba’zi she’r-baytlarida o‘z ota-onasi kimligini bilmaganligi, avlod-ajdodlari kimligidan tamoman bexabar etim bo‘lganligini quyidagicha ifodalagan: “Alloh taologa qasamki, men nasabim kimligini bilmayman. Zero, men aslida bobom kimligini ham bilmayman-da! Axir otam kimligini bilmasam, qandoq qilib bobom kimligini bilay?!”[10]. Boshqa bir she’rida esa:

“Oli Iroq oq sut berib boqqan meni,
Ularning Mansuri esa, o‘stirib, voyaga yetkazgan meni”[11].

[8] Каримов У.И. О дате смерти Беруни // Общественные науки в Узбекистане. – 1970. – № 8. – С. 67–68.
[9] Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 28.
[10] Расулев А. Некоторые соображения о Беруни и его стихах // Беруни и гуманитарные науки. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 54.
[11] Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 28.

Tadqiqotda Beruniy 16 yoshgacha Abu Nasr Mansur ibn Iroq xonadonida unib-o‘sib, ulg‘ayib, uning ustozligida ta’lim-tarbiya olib, o‘z davri uchun juda yuksak an’anaviy oliy musulmon ma’lumotiga ega bo‘lgan, ayniqsa matematika, astronomiya sohalari bo‘yicha mukammal bilimga ega yetuk shaxs, olim bo‘lib yetishgani asoslangan[12]. Ustozi Abu Nasr Mansur ibn Iroq vositasida o‘sha paytda o‘z taraqqiyotining gullab-yashnashi pallasiga kirayotgan Katdagi Afrig‘iy Xorazmshohlarning Iroqiylar sulolasi saroyida to‘plangan, shakllanayotgan yetuk olimlar, siyosatchilar, arboblar, nadim-maslahatchilar, davlat a’yonlari davrasiga qo‘shilgan[13]. Umrining oxirlarida bitgan “Kitob as-saydana” asarida hayot yo‘lini qaytadan xotirlab, Beruniy quyidagilarni yozgan edi: “O‘z tabiatimga ko‘ra men juda yoshlik chog‘larimdanoq yoshim va shart-sharoitlarga to‘g‘ri keladigandan ortiq darajada bilim olishga o‘ta chanqoq edim. Buning dalili sifatida quyidagini keltirib o‘tish kifoya: «biz turadigan joyga bir Rumlik ko‘chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug‘lar, mevalar va hokazolarni olib borib, unga ko‘rsatar va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so‘rab olib, nomini yozib qo‘yar edim»”[14].

Dissertant IX-XII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharqdagi madaniy yuksalish ko‘pgina sharqshunoslarning asarlarida “Arab Renessansi” deb atalishini, bu esa tarixiy faktlarga asoslanmagani va obyektiv haqiqatni aks ettirmasligini qayd etadi. Professor A.B.Xalidov o‘zining “Arab qo‘lyozmalari” asarida yozishicha, “Arab tilidagi madaniyat o‘z mazmuni, yo‘nalishi, yutuqlari bilan Uyg‘onish davri madaniy yuksalishini o‘zida ifoda etdi. Beruniy ta’rificha, bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma’naviy jihatdan katta zarar keltirdi: yerli hokimiyat tugatilib, madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo‘q qilindi, kitoblar yondirib yuborildi”[15]. Lekin bu madaniy yuksalish jarayonini to‘xtatib qola olmadi, u o‘z davomiga ega bo‘ldi. Renessansda arablarga bo‘ysundirilgan barcha xalqlarning madaniy yutuqlari barobar ishtirok etgan va bir butun holda IX-XII asrlar Renessansini tashkil etadi. Lotin tili Yevropa Renessansi tili bo‘lgani singari, arab tili ham bu davrda katta hududda ilmiy aloqa quroliga aylangan bo‘lib, ilmiy asarlarning arab tilida yaratilgan bo‘lishi, masalaga yuzaki qaraganda, uning yaratuvchisi, muallifi faqat arablar edi, degan noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin. “Arab Renessansi” terminining qo‘llanishi ana shuning oqibatidir. Aslida “Arab Renessansi” termini IX-XII asrlarda Misr, Suriya, Iroq, Mag‘rib kabi arab mamlakatlarida yuz bergan madaniy rivojlanish sifatida talqin etilishini taqozo etadi[16].

Beruniy egallagan fundamental tabiiy-ilmiy va gumanitar ilmlar uning tabiiyyun oqimi vakili, yirik naturfalsafachi, tabiatshunos olim bo‘lib yetishishida, xususan, izchil va asosli naturfalsafiy tizimini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Beruniyning Shayx-ur-Rais Ibn Sino bilan Arastuning “Fizika”, “Osmon va olam haqida” nomli kitoblaridagi 18 ta dolzarb va murakkab, hal qilinmagan

[12] Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 25–34.
[13] Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.; Л., 1948. – С. 234–266.
[14] Каримов У.И. Китаб ас-Сайдана Беруни: автореф. дис. … д-ра филол. наук. – Ташкент, 1971. – С. 6.
[15] Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М.: Наука, 1985. – С. 122–140; Беруний А.Р. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. И жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 72–84.
[16] Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971. – Б. 13.

naturfalsafa muammolari bo‘yicha davomli yozma ilmiy bahs-munozaralari uning ijodining muhim qirrasini tashkil etadi. Aynan ana shu bahs-munozaralarda Beruniyning borliq, uning substansial asoslari, tuzilishi, turlari, mavjudlik usul va shakllari to‘g‘risidagi substansional konsepsiyasi o‘zining yorqin ifodasini topdi, himoya qilindi. Uning “Geodeziya”, “Mashohiri Xorazm”, Roziy va o‘zining bio-bibliografik fihristi kabi 1021-1027-yillarda yozgan asarlari aslida Xorazmda yig‘ilgan materiallarning umumlashtirilishi natijasi bo‘lib, ular G‘azna davrining birinchi o‘n yilligida kitob holiga keltirilgan. (Qarang: 1-rasm)

1-rasm.



1-rasm. Beruniy va Ibn Sino ta’limotlarining qiyosiy tahlili (yozma bahs-munozara misolida)

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Beruniy naturfalsafiy qarashlarining shakllanishi X-XI asrlarda Xorazm, Jurjon va G‘aznada kechgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy-intellektual jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Xorazm ilmiy an’analari, Ma’mun akademiyasidagi ilmiy muhit va turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ilmiy aloqalar mutafakkir dunyoqarashining rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur omillar Beruniyning tabiat, inson va jamiyat haqidagi qarashlarida tizimlilik, fanlararo aloqadorlik hamda tanqidiy tafakkur tamoyillarining shakllanishiga zamin yaratgan. Natijada uning naturfalsafiy qarashlarida turli ilmiy maktablarga xos bilimlarni o‘zaro bog‘liq holda talqin qilish va tabiat hodisalarini sababiy izohlashga intilish ustuvor xususiyat sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu metodologik xususiyatlar Beruniy ilmiy tafakkurining tizimli va fanlararo xarakterini belgilagan. Beruniy turli xalqlarning diniy e’tiqodlari, urf-odatlari va ilmiy qarashlarini qiyosiy o‘rganishi uning tadqiqotlarida tarixiy kontekstni hisobga olish, ilmiy-falsafiy merosida tabiat, inson, jamiyat va diniy tasavvurlar o‘z davrining tarixiy-madaniy sharoiti doirasida o‘zaro aloqador hodisalar sifatida talqin qilingani, manbalarni tanqidiy tekshirish va xolis ilmiy munosabat bildirish tamoyillari muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv Beruniy naturfalsafasining tarixiy mazmunini saqlagan holda, uning

nazariy-metodologik xususiyatlarini zamonaviy falsafiy tafakkur nuqtayi nazaridan yoritish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda antik davr naturfalsafiy an’analarining taraqqiyoti va unda Beruniy merosining o‘rni”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘rta asr musulmon xalqlari falsafasida naturfalsafiy g‘oyalarning shakllanishi va rivojlanishi, Beruniy naturfalsafasi xususiyatlarining sinergetik va ilmiy asoslari hamda Beruniyning tabiiyyun oqimi tarafdori sifatida borliq muammosini qo‘yishi masalalari tadqiq qilingan.

Beruniyning naturfalsafasi va umuman, dunyoqarashi o‘rta asr musulmon jamiyati ilm-fani, falsafasida mavjud bo‘lgan juda boy, xilma-xil ta’limotlar bilan bog‘liqdir. Xususan, bu ta’limotlar, konsepsiyalar quyidagilardan iborat:

a) rasmiy sunniy islom ilohiyotchiligining Qur’on, tafsir, hadislarda berilgan borliq asoslari, uning mohiyati haqidagi ta’limoti;

b) kalom ilmi – mu’tazila, shuningdek, Ash’ariy, Moturidiy, Boqilloniy va boshqalar ishlab chiqqan borliqning “yo‘qdan bor qilinib”, har on, har daqiqada Alloh ilmi, hikmati, irodasi, qudrati bilan “qaytadan tuzilib, yana qaytadan buzilib turiladigan” dunyo ekanligini tushuntiruvchi kreatsion substansional konsepsiyasi;

v) shiya-ismoiliylar, ta’limiylar ilgari surgan va “Fayzi ilohiy”, “Suduri ilohiy” ta’limotiga asoslangan borliq haqidagi “Olami Sag‘ir”, “Olami Kabir” kreatsion konsepsiyalari;

g) tasavvufning borliq haqidagi “Vahdat-ul-mavjud”, “Vahdat-ul-vujud”, “Vahdat-ush-shuhud” konsepsiyalari;

d) ishroqiyyunlar – Shalmag‘oniy, Ibn Avn Xusayiniy, Shihobiddin Suhravardiylarning borliq, olam asosida yotuvchi azaliy va abadiy Nur “Nuri Muhammadiy” haqidagi kreatsion konsepsiyasi.

Tadqiqotchi fikricha, antik davr naturfalsafiy an’analari musulmon Sharqida bevosita emas, balki kalom, mu’tazila, ishroqiyya va tasavvuf vakillarining ular bilan bahsi va o‘zaro ta’siri jarayonida o‘zlashtirildi. Shu sababli Beruniyning antik merosga munosabatini aniqlash uchun bu oqimlarning borliq, olamning yaratilishi, atom va aksidensiyalar haqidagi qarashlari qisqacha ko‘rib chiqildi va mutafakkir pozitsiyasi ular bilan qiyoslanadi. IX asrga kelib borliqning yaratilishi va tuzilishi, unda atomlar (substratlar) va aksidensiyalarning o‘zaro munosabati to‘g‘risida bir qancha qarashlar mavjud bo‘lgan. *Ulardan biri* VIII asrda yashab o‘tgan Ziror ibn Amrga tegishlidir[17]. Unga ko‘ra borliq atomlar va aksidensiyalardan iborat bo‘lib, bunda aksidensiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega, ya’ni tabiat jismlarining mavjudligi aksidensiyalarda o‘z ifodasini topadi, ular bo‘lmasa jismlar ham bo‘lmaydi. Sinergetikadagi analogiyada bu tizim holatini belgilovchi “sifat belgilari”ning, ya’ni holat parametrlarining ustuvorligi haqidagi g‘oyadir. *Ikkinchi qarash* unga teskari bo‘lib, uning tarafdorlari moddiy olamning mavjudligi ko‘proq aksidensiyalarga emas, balki substratlarga, ya’ni atomlarga bog‘liq, chunki jismlar atomlardan tashkil topgan deyishgan. Bu yondashuvda tizimning barqarorligi “asosiy elementlar”ning saqlanishiga bog‘lanadi. Ular qatorida Hishom b. al-

[17] Nosirov R.N., Sirojiddinov Sh.S., Ziyautdinova X.A. O‘rta Osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2007. – B. 18.

Hakam, al-Asam, Nazzomlar bo‘lgan[18]. *Uchinchi qarashga* muvofiq, jismlar ham, aksidensiyalar ham borliqning tarkibiy qismlari hisoblanib, ularning asosini bo‘linmas elementlar tashkil etadi[19].

Dissertatsiyada sinergetik tushunchalar va Beruniy naturfalsafasi tushunchalari o‘rtasidagi muvofiqlik va uning chegaralari qiyosiy tahlil etilgan. Jadvalning ikkinchi ustuni sinergetik atamalarning qisqa izohli lug‘ati, uchinchi ustuni esa Beruniy asarlaridan olingan dalillar vazifasini bajaradi. (Qarang: 2-rasm)

2-rasm.

№	Sinergetik tushuncha	Beruniy fikri	Muvofiqlik va uning chegarasi
1	**Ochiq tizim** – muhit bilan modda, energiya, axborot almashinuvi	Hayvonlar o‘simliklardan, o‘simliklar minerallardan tezroq chiriydi; bu namlik va issiqlikka bog‘liq. Quyosh va Oy ta’sirida suvning aylanishi.	Muhit bilan namlik va issiqlik almashinuvi ochiq tizim g‘oyasiga yaqin; energiya va axborot tushunchalari yo‘q.
2	**Nochiziqlilik** – chegaradan o‘tish natijani sifat jihatdan o‘zgartiradi	«Lazzat me’yordan oshsa, malol keladi». Hindiston bir vaqtlar daryo yotqiziqlari bilan to‘lgan dengiz bo‘lgan.	Me’yordan oshish teskari natija beradi; asosi – antik me’yor tamoyili, matematik ifodasiz.
3	**Bifurkatsiya** – yo‘l tanlanadigan kritik nuqta	Jurjon va Xorazm orasidagi toshqotgan qoldiqlar; Jayhun Jayhun (Amudaryo) o‘zanining o‘zgarishi.	Muqobil yo‘llar orasidagi o‘tishga misol; kritik nuqta nazariyasi Beruniyda yo‘q.
4	**Fluktuatsiya** – yangi tartib manbai bo‘lgan tasodifiy tebranish	«Tabiat aql bovar qilmas hodisalarni yuzaga keltirishi mumkin...»; kuzatuv ma’lumotlaridagi tafovutlar.	Noodatiy hodisa tasodif bilan emas, hali aniqlanmagan sabab bilan izohlanadi; o‘xshashlik qisman.
5	**Attraktor** – tizim intiladigan barqaror holat	«...hech qanday unsur uchun belgilab qo‘yilgan tabiiy tinchlik joyi yo‘q».	Beruniy «tabiiy joy»ni tanqid qiladi; attraktorga markazga intilish va davriy jarayonlar yaqinroq.
6	**Entropiya** – qaytmaslik, «vaqt yo‘nalishi»	«Vaqt poyoniga yetgach, parchalanish yuz beradi: nima yashil bo‘lsa – sarg‘ayadi...»; zamon va dahrning farqlanishi.	Qaytmaslik sifat jihatdan aniq ifodalangan; miqdoriy o‘lchovi yo‘q.
7	**O‘z-o‘zini tashkil etish** – ichki o‘zaro ta’sir orqali tartibning paydo bo‘lishi	«Jismlar o‘z-o‘zidan, bir-biriga ta’sir qilibmi o‘zgaradi...?»	O‘zgarish manbai – jismlar xossasi va o‘zaro amma tartibning yakuniy manbai – Yaratuvchi; o‘xshashlik qisman.

2-rasm. Sinergetik tushunchalar va Beruniy naturfalsafasi tushunchalarining qiyosi

Jadvaldagi qiyos sinergetik kategoriyalar Beruniy tushunchalariga aynan teng emasligini ko‘rsatadi: ular mutafakkir qarashlaridagi tizimlilik va dinamiklikni

[18] Nosirov R.N., Sirojiddinov Sh.S., Ziyautdinova X.A. O‘rta Osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2007. – B. 18.

[19] Nosirov R.N., Sirojiddinov Sh.S., Ziyautdinova X.A. O‘rta Osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2007. – B. 18.

qiyosiy talqin qilish uchun yordamchi tahliliy vosita vazifasini bajaradi. Eng yaqin muvofiqlik jarayonlarning qaytmasligi, me'yor chegarasidan o'tganda ta'sirning sifat jihatdan o'zgarishi hamda tabiatning uzoq muddatli o'zgaruvchanligi bo'yicha kuzatiladi. Bifurkatsiya, fluktuatsiya va o'z-o'zini tashkil etish bo'yicha o'xshashlik qisman: Beruniy noodatiy hodisalarni hali aniqlanmagan sabab bilan izohlaydi, tartibning yakuniy manbaini esa ilohiy qonuniyat bilan bog'laydi. Attraktor masalasida Beruniy Aristotelning "tabiiy joy" tushunchasini qo'llab-quvvatlamay, aksincha, uni tanqid qilgani alohida e'tiborga loyiq.

Beruniy tafakkurida voqelik bir-biridan ajralgan emas, aksincha, o'zaro ta'sir va o'zaro uyg'unlashuv orqali dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv bugungi kunda sinergetikaning asosiy tushunchasi bo'lmish murakkablik ichida tartib va tartibsizlik o'rtasidagi muvozanat tamoyiliga mos keladi. Beruniyning borliq muammosiga yondashuvidagi o'ziga xoslikni uning substansional konsepsiyani himoya qilishi va rivojlantirishida deb biladi. Bunda muallif Beruniyning borliq muammosini o'rtaga tashlashida o'rta asr musulmon xalqlari falsafasining ratsionalistlik yo'nalishidagi borliq, uning mohiyati, mavjudlik usuli va shakllari haqidagi ta'limotlardan ikkitasiga alohida e'tibor qaratganini ta'kidlaydi. Ulardan *birinchisi* Sharq arastuchi-mashshoiyyunlari – Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sinolar ishlab chiqqan borliq haqidagi relyatsion konsepsiya bo'lib, unga ko'ra borliq va uning mavjudlik shakllari – makon va zamon – materiya va jon (nafs)dan mustaqil emas, aksincha, ular bilan ajralmas aloqadorlikda bo'ladi va tadrijiy o'zgaruvchandir[20].

Ikkinchisi Sharqdagi qadimgi yunon mutafakkirlari Levkipp, Demokrit, Epikur, Geraklit, Gippokrat, Galen, ularning Sharqdagi izdoshlari bo'lgan naturfalsafachilar – tabiiyyunlar – Jobir, Eronshahriy, Roziylarning borliq haqidagi substansional konsepsiyasidir[21]. Bu konsepsiyaga ko'ra, borliq va uning mavjudlik usuli, shakllari – mutlaq hayula (materiya), jon (nafs), makon, zamon azaliy va abadiy o'zaro bir-biridan mustaqil va o'zgarmas mohiyatga ega.

Beruniy ilm-fan, falsafa taraqqiyotida qadimgi yunon faylasuflari – Levkipp, Demokrit va boshqalardan keyin o'tgan qariyb bir yarim ming yillik taraqqiyot yutuqlarini hisobga olib, o'zi himoya qilgan borliq, birlamchi substansiyalar haqidagi substansional konsepsiyaga bir qator o'zgarishlar kiritgan. Xususan, bo'shliqning mavjud bo'lishining mumkin emasligi, olamning cheksiz bo'lishi mumkinligi, oxirgi bo'linmas zarra atomning yanada bo'linmasligining yetarli darajada asoslab berilmaganligi to'g'risida fikr-mulohazalarni ilgari surgan va ularni asoslashga uringan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda antik naturfalsafiy an'analar yunon, hind va musulmon Sharqi ilmiy-falsafiy qarashlarining o'zaro ta'siri asosida rivojlanib, yangi nazariy va metodologik mazmun bilan boyigan. Abu Rayhon Beruniy naturfalsafasining shakllanishida antik ilmiy-falsafiy merosni tanqidiy o'zlashtirish, turli ilmiy an'analarni qiyoslash hamda nazariy qarashlarni empirik dalillar bilan tekshirish tamoyillari ustuvor o'rin tutgan. Bu yondashuv Beruniy naturfalsafasining tanqidiy-ratsional, fanlararo va tizimli

[20] Turayev B.O. Tanlangan asarlar. 2-tom. – Toshkent, 2015. – B. 168.
[21] Turayev B.O. Tanlangan asarlar. 2-tom. – Toshkent, 2015. – B. 168.

xususiyatlarini belgilab, uning ilmiy bilish metodologiyasini o‘z davridagi boshqa falsafiy yondashuvlardan farqlash imkonini bergan. Mutafakkirning tabiiyun oqimi bilan bog‘liq naturfalsafiy pozitsiyasida bo‘shliqning mavjudligi, olamning cheksizligi hamda atomning bo‘linuvchanligi masalalari tanqidiy muhokama qilingan, uning mavjud ontologik tasavvurlarni ilmiy dalillar asosida qayta baholashga intilgan. Beruniyning Markaziy Osiyo va musulmon Sharqi naturfalsafiy tafakkuri taraqqiyotidagi o‘rni antik ilmiy an’analarni saqlash bilangina cheklanmasdan, ularni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, yangi empirik ma’lumotlar bilan boyitish hamda fanlararo aloqadorlik asosida rivojlantirishda namoyon bo‘lgan.

Dissertatsiyaning **“Beruniyning borliq, uning mohiyati, turlari, mavjudlik usuli va shakllari haqidagi g‘oyalari”** deb nomlangan uchinchi bobida Beruniyning borliq substansiyasi va turlari haqidagi qarashlari, borliqning mavjudlik usuli va shakllari to‘g‘risidagi substansial konsepsiyasi hamda borliqning strukturasi to‘g‘risidagi g‘oyalari tahlil etilgan.

Beruniyning borliq to‘g‘risidagi falsafiy mushohadalari uning yangi tabiiy-ilmiy g‘oyalariga tayanadi. Bu g‘oyalar, ayniqsa Yerning harakati haqidagi g‘oya Beruniyning borliq to‘g‘risidagi qarashlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Buni uning quyidagi mulohazalari tasdiqlaydi: “Olam butun borlig‘i bilan yumaloq shaklli bir jism bo‘lib, uning chegaralari chekli va uning ichida bir qismi harakatsizdir. Harakatsiz navdan bir bo‘lagi boshqa nav o‘rniga ko‘chirilganda, u o‘sha o‘z o‘rniga tomon qaytib, to‘g‘ri va aksident harakat qiladi. Shu harakatsiz qismning atrof-tevaragidagilari “Haqiqat as-sufl-haqiqiy quyilik” va “Yerning haqiqiy markazi” deyiladigan o‘rta joy tevaragi bo‘ylab fazoda aylanma harakat qiladi. Ana shu mavjud jism to‘plamiga umumiy qilib – olam ismi beriladi”[22].

Dissertant fikricha, Beruniy olamning aylanma harakat qiluvchi qismini “yuqori olam”, to‘g‘ri harakat qiluvchi qismini “quyi olam” deb hisoblaydi. U yozadi: “Bayoniga ehtiyojimiz tushadigan narsa (ya’ni Yer) shu (to‘rt) navning biri bo‘lib, ular olam o‘rtasi atrofida bir-birining tepasiga tartibli suratda qo‘yilgan va ularning eng yengili to efir “tagigacha”, ya’ni uning bizga eng yaqin chegarasiga yetadi. U navlarning vazni og‘iri olam markaziga intilma, enligi esa, olam markazidan qochma harakat qiladi”[23]. Bu o‘rinda Beruniyning borliq muammosi bo‘yicha ilgari surgan nuqtayi nazarini quyidagi ikki holatdan kelib chiqib, talqin qilingan:

Birinchisi, Beruniyning borliq haqidagi qarashlari mumtoz musulmon xalqlari falsafasida borliq, substansiya masalasining qo‘yilishi va hal etilishini tushunish va talqin etishda Kindiy va undan avvalgi tabiatshunos faylasuflar ilgari surgan “Borliq – bu javhar (substansiya)” degan ilk talqindan (IX-X asr) musulmon jamiyati, falsafasining yetuk, balog‘at davridagi (XI-XII asrlar) “Borliq – bu Haqq vujuddir” (vojib-ul-vujud) degan talqin, konsepsiyaga o‘tish jarayonini o‘zida yaqqol aks

[22] Беруний Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Танланган асарлар. В жилд, 1-қисм. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.41.
[23] Беруний Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Танланган асарлар. В жилд, 1-қисм. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.41.

ettiradi[24]. Bu esa nafaqat tabiatshunoslikda, balki falsafa, din, ilohiyotda ham sodir bo‘lgan o‘ta murakkab, ziddiyatli jarayon edi.

Ikkinchisi, borliq – Haqq vujudi to‘g‘risidagi masala tevaragida mu’tazila, ilk kalomdagi qizg‘in bahs-munozaralar bo‘lib, bu munozaraga faylasuflar, shiya-ismoiliylar kabi bid’at mazhab vakillari ham qo‘shilgan edi. Beruniy, deistik pozitsiyada bo‘lishiga qaramay, olamni obyektiv reallik, inson irodasidan tashqarida, mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan borliq sifatida olib qarashga moyil edi.

Beruniyning borliq, uning mohiyati va substansiya haqidagi qarashlari, o‘rta asrdagi islom falsafiy makonida vujudga kelgan turli intellektual attraktorlar bilan o‘zaro ta’sirchan sinergetik muloqot jarayonida shakllangan. Bu attraktorlarga sunniy ilohiyot, kalom, shi’a-falsafa ta’limotlari, tasavvuf va ishroqiylik qarashlari kiradi. Har bir ta’limot muayyan ma’no va tushunchalar majmuasi sifatida Beruniy dunyoqarashida ma’naviy fluktuatsiyalar manbai bo‘lib xizmat qilgan. Natijada, u o‘z konsepsiyasini ma’lum bir markazga emas, balki ilmiy-metafizik uyg‘unlikka asoslangan holda shakllantirgan.

Dissertatsiyada alloma talqinidagi borliqning mavjudlik usuli – hayula, uning mavjudlik shakllari makon va zamon, harakat masalalari tahlil etilgan. Borliq, substansiya harakati, o‘zgarishi jarayonlarini borliqning birlamchi, eng toza va sodda asosi (substansiyalari) bo‘lmish to‘rtta unsur – suv, tuproq, havo, olov harakati bilan bog‘liq ko‘rinishini bayon etayotganida, Beruniy mazkur unsurlarning Aristotel bilan bog‘liq mashshoiyyunlar hamda demokritchilarning naturfalsafasi konsepsiyalariga xos bo‘lgan bir necha quruq sxolastik safsata, hatto uydirma xarakterdagi aqidalarini jiddiy va asosli tanqid qiladi. Muallif mazkur bobda Beruniy talqinidagi borliqning mavjudlik usuli va shakllarini qiyosiy tahlilini quyidagicha ko‘rsatadi: (Qarang: 3-rasm)

3-rasm.

Jihat	Beruniy qarashlari	Sinergetik-falsafiy izoh
Borliq	Tabiiy jarayonlardan iborat obyektiv, mustaqil holat; tabiat – moddiy borliq ifodasi.	O‘zaro bog‘liq dinamik tizim; tabiat – muvozanat va o‘zgarish jarayonlaridagi o‘zaro ta’sirlar maydoni.
Moddiy substansiya	Hayula (materiya) – azaliy va faol asos; suvning dastlabki unsur ekani haqidagi qadimgi qarashlarni tahlil qilgan.	Barqarorlik va o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi tizimli muvozanat.
Birlamchi unsurlar	Yer, suv, havo va olov – borliqning asosiy unsurlari.	O‘zaro ta’siri murakkab dinamik holatlarni yuzaga keltiruvchi tizim elementlari.
Borliq va zamon	Zamon borliq bilan uzviy bog‘liq.	Zamon – tizimdagi evolyutsiya va o‘zgarishning o‘zagi.

[24] Шарипов А.Дж. Великий мыслитель Абу Райхан Бируни. – Ташкент: Узбекистан, 1972; Шарипов А.Дж. Философская переписка Беруни и Ибн Сины // Вопросы философии. – 1978. – № 10.

Jihat	Beruniy qarashlari	Sinergetik-falsafiy izoh
Shakl va modda	Har bir shaklning moddiy asosi bor; modda va shakl ajralmas.	Tizimdagi tartib va betartiblik muvozanati.
Yaratuvchi va tabiat	Xudo – borliqning dastlabki yaratuvchisi; keyingi jarayonlar tabiiy qonuniyatlar asosida kechadi.	Dastlabki turtkidan so‘ng tizim o‘z-o‘zini tashkil etish holatiga o‘tadi.
O‘zaro ta’sir va evolyutsiya	Materiya tabiat qonunlari asosida o‘zgaradi.	Sinergetik fazalar almashinuvi va o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlari.

3-rasm. Beruniy borliqning mavjudlik usuli va shakllarining sinergetik tahlili

Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, makon va zamon, uning borliq, substansiya bilan tub, ichki zaruriy aloqadorligi masalasida Beruniy qarashlarining tabiiyyun oqimi vakili, substansional konsepsiya tarafdori sifatidagi o‘ziga xosligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Beruniy makon va zamonning ontologik mavjudligi, ularning ko‘lami va davomiyligi mutlaq obyektiv sifatlar ekanligini ta’kidlaydi. “Kitab al-Jamahir” asarida Beruniy makonning quyidagicha tabiiy-ilmiy va falsafiy tavsifi-ta’rifini keltiradi: “...makonda jismlarning ko‘lamligi uchta yo‘nalishda yuzaga chiqadi: birinchidan – uzunasiga, ikkinchidan – eniga, uchinchidan – chuqurligi yoki bo‘yiga ko‘ra”[25]. Mutlaq makonning ta’rifi, sifat va xossalarining talqini ham falsafiy-ontologik jihatdan, ham gnoseologik jihatdan o‘ta qiziqarlidir. U davrda ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan mutlaq makon tushunchasi oddiy bo‘sh o‘rin-joy, hatto idish; biron-bir tarzda na hayulaga, na mutlaq zamonga aloqasi, ta’siri yo‘q, sifatsiz, xossasiz yuza, tekislik deb tushuntirib kelinayotgan bo‘lsa, Beruniy tavsifida substansiya:

1) unda harakat qilinayotgan jismga qo‘yilgan kuch miqdoriga qarab;

2) harakatlanish nuqtasiga qarab;

3) jism harakatining oqibatlariga qarab anchagina murakkab, ko‘z ilg‘amas, aql bovar qilmas sifat, xossalarga ega bo‘lishi mumkin.

Boshqa tomondan esa, tadqiqotchilar aniqlaganidek, o‘z davrida Roziy mutlaq makonni “Mutlaq” va “Muda’f” tur, jinslarga ajratib qaragan[26]. Mutlaq zamon (vaqt) tushunchasini izohlashga kelganda, Beruniy bu substansiyaning hayula yoki mutlaq makonga yoki jon (ruh)ga aloqasi yo‘q, ularga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan, o‘z-o‘zicha mustaqil ekanligini ta’kidlasa-da, uning qator sifat, xossalarining Roziy konsepsiyasi asosida hamda o‘z kuzatish, tajribalariga tayanib, juda mufassal, boy ta’riflarini keltiradi.

Dissertatsiyada Beruniy va Roziy ta’limotidagi beshta substansiya (Xudo, nafs, hayula, makon, zamon) bir-biriga ta’sir etuvchi, bir-birini to‘ldiruvchi va harakatga keltiruvchi tizim unsurlari sifatida talqin qilinadi. Bu sinergetik tizimdagi elementlar

[25] Бируни Абу Рейхан. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия). – М.: Наука, 1963. – С. 325.

[26] Усманов М.У. Философские взгляды Мухаммад Закария ар-Рази //Философское наследие народов Ближнего и Среднего Востока – Ташкент, 1976. - С. 18.

oʻrtasidagi murakkab, koʻp darajali bogʻliqlikni ifodalaydi. Shuningdek borliqning strukturasi va bu boʻyicha alloma qarashlari tahlil etilgan. Jumladan, allomaning ta'kidlashicha, "Zamonning boshlanishi va olamning yaratilishi biz faraz qilgan biror lahzadan, zamon onlaridan ancha oldin kelgan boʻlishi mumkin"[27]. U keltirib chiqargan xulosaga koʻra, olamning yaratilish vaqti, xohlagancha uzoq muddat orqaga, hatto cheksizlikkacha surilishi mumkin.

Harakat va oʻzgarish sinergetik bosqichlarida Beruniy makon va zamonni oʻzgarish jarayonidagi harakat bilan izohlagan. Sinergetikada har qanday tizim muvozanatdan chiqib, yangi tartib bosqichiga oʻtish orqali evolyutsiyalanadi. Beruniyda zamon va makon aynan shunday oʻzgaruvchan muhit hisoblanadi, u yoki kosmologik jarayonlarni yoki tajriba-eksperiment natijalarini namoyon qiladi. Shuningdek, "Borliqning yaratilishini aql bilan idrok qila olish darajasida ifodalay bilish, uning tarkibi va qurilmasini sillogizm asosida, ya'ni tana oʻzi paydo boʻlgan unsurdan ajralishi mumkin emas, chunki ular ketma-ketlikda mavjud boʻladilar. Shuning uchun ham, nimaiki narsa oʻzi paydo boʻlgan narsadan ajralganidek, uning oʻzi ham boshlangʻich unsur boʻlib qolishi mumkin. Bundan esa, demak, tana boshlangʻich unsurdan hosil boʻladi, lekin u boqiy boʻla olmaydi. Natijada sillogizm birlamchi shakldan tana tugʻilajagini tasdiqlaydi"[28]. Ushbu fikrda sinergetik falsafa nuqtayi nazaridan shunday qimmatli jihat koʻrinadiki, borliq faqat oʻzini tashkil etuvchi unsurlarning yigʻindisi emas, balki oʻzaro ta'sir va integratsiya jarayonida yangi sifatiga ega boʻladigan murakkab tizimdir[29]. Tana va unsurning ajralmasligi haqidagi mulohaza sinergetik tizimdagi komplementarlik ya'ni oʻzaro toʻldiruvchanlik tamoyilini yodga soladi. Boshlangʻich unsurlar doimiy va qayta shakllanuvchi jarayonda ishtirok etadi, ularning evolyutsion bogʻliqligi tizimning barqarorligi va oʻzgaruvchanligini ta'minlaydi.

Beruniyning zamon davomiyligi, davriylik, ketma-ketlik va miqdoriy oʻlchash haqidagi qarashlari astronomik kuzatuvlar, matematik hisoblashlar hamda tarixiy-xronologik tadqiqotlar bilan uzviy bogʻliq. Mutafakkir vaqtni hisoblashda osmon jismlarining harakati, tabiiy jarayonlarning takrorlanishi va tarixiy voqealarning ketma-ketligiga asoslanib, zamonning falsafiy mohiyati bilan uning ilmiy oʻlchanishi oʻrtasidagi munosabatni yoritgan.

Dissertant mulohazalariga koʻra, Abu Rayhon Beruniyning borliq va substansiya haqidagi naturfalsafiy qarashlari oʻrta asr musulmon falsafasidagi substansional va relyatsion konsepsiyalar oʻrtasidagi nazariy munosabatlar asosida shakllangan. Mutafakkirning tabiiyun oqimi bilan bogʻliq falsafiy pozitsiyasi borliqning moddiy asoslari, mavjudlik shakllari va tabiiy qonuniyatlarini empirik kuzatish hamda mantiqiy dalillash orqali tushuntirishga intilishi bilan ajralib turadi. Beruniy ontologiyasida Xudo, nafs (jon), hayula, makon va zamon tushunchalari borliqning asoslari hamda mavjudlik shartlarini izohlashda muhim oʻrin egallaydi. Mutafakkir tabiiy jismlarning oʻzgarishi, kosmik harakatlar, quruqlik va dengizlarning oʻzaro almashinuvi kabi jarayonlarni sababiy bogʻlanishlar asosida

[27] Беруний А.Р. Геодезия // Танланган асарлар. 3 жилд. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 40.
[28] Бируни Абу Рейхан. Определение границ мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия) // Избранные произведения. Т. III. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 92.
[29] Turaev B.O., Rahmonov B. Sinergetika-3: ma'naviy meros. – Toshkent: Fan ziyosi, 2024. – B. 134.

tushuntirishga intilgan. Vaqtni hisoblashda osmon jismlarining harakati, tabiiy jarayonlarning takrorlanishi va tarixiy voqealarning ketma-ketligiga asoslanib, zamonning falsafiy mohiyati bilan uning ilmiy o‘lchanishi o‘rtasidagi munosabatni yoritgan.

Dissertatsiyaning **“Beruniy tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi haqidagi naturfalsafiy g‘oyalarida sinergetik qonuniyatlarning aks etishi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Beruniyning jamiyat va inson borlig‘ining tabiiy-ilmiy asoslari haqidagi qarashlari, Beruniy merosida tabiat, muhit va inson munosabatlarining ekologik-falsafiy talqini hamda Beruniyning tabiiy hodisalarning inson taqdirini belgilashi masalasiga munosabati tahlil etilgan.

Beruniy jamiyat haqida yaxlit konsepsiya yaratmagan bo‘lsa-da, ba’zi G‘arb olimlarining, xususan, E.Zaxauning ijtimoiy qarashlarini “konservativ” yoki “obyektivistik” deb baholashi ma’lum ma’noda Sharq va G‘arbdagi turli siyosiy-falsafiy paradigmalarning natijasi sifatida qaralishi lozim. E.Zaxau Beruniyni “Hindiston” asarining tarjimasiga kirish so‘zida “faqat taxt va mehrobni himoya qiluvchi” shaxs sifatida tavsiflagan bo‘lsa-da[30], bu baho muallifning tanlab olingan, qisman nuqtayi nazaridan kelib chiqqan. Beruniyni konservativ yoki progressiv degan qarama-qarshi tasavvurlar doirasida cheklab qo‘yish mumkin emas. Uning fikrlash uslubi tezkor anglash emas, balki tizimli tahlil, bog‘lanish va uzviylik asosida shakllangan. Mutafakkir kishi ongi, tafakkuri va ruhiyatini moddiy jismdan keltirib chiqargan holda tasavvur etadi. Bu uning ruhiy borliqni tadqiq etishining boshlang‘ich nuqtasini tashkil etadi. Mutafakkirning inson borlig‘i va ijtimoiy borliq masalalaridagi qarashlari moddiy olam va ruh to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari bilan uzviy bog‘liq. Xususan, Beruniy inson va jamiyatning tabiiy muhitda mavjudligi, tabiat qonunlariga bo‘ysunishi, ayni paytda, borliq, mavjudotning alohida turi sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

Dissertatsiyada Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi tabiatni har tomonlama o‘rganishga yo‘naltirilgani ko‘rsatib berilgan. Uning asarlarida bugungi atamalar bilan aytganda ekologik tafakkurning dastlabki unsurlarini ko‘rish mumkin. Xususan, tabiiy muhitga inson aralashuvining oqibatlari va tabiatni aniq hamda ehtiyotkorona kuzatish zarurligi haqidagi fikrlar shular jumlasidandir. Mutafakkir qarashlariga ko‘ra, tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik buzilsa, buning zararini insonning o‘zi ham ko‘radi. “Mineralogiya” asarida Beruniy foydali qazilmalarning paydo bo‘lishi va ularni olish usullari haqida so‘z yuritar ekan, inson hayoti va tirikchiligi tabiiy muhitga bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi va shunday xulosaga keladi: “Agar shunday bo‘lmasa, u yerlarga hech kim bormas, ular bu yerlarda yashay ham olmas ekanlar”[31]. Bu fikrda tabiat va inson o‘rtasida muvozanat mavjudligi g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Demak, mutafakkir insonning tabiatga munosabatini faqat bilish predmeti sifatida emas, balki axloqiy-falsafiy masala sifatida ham ko‘radi.

Beruniyning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi qarashlari tabiiy muvozanatni saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Ularda tabiat o‘zgaruvchan va

[30] Шарипов А.Дж. Великий мыслитель Абу Райхан Бируни. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – С. 121.
[31] Beruniy Abu Rayhon. Kitob al-Jamohir fi ma’rifat al-javohir / Tarj. A. Qayumov. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 203.

inson faoliyati bilan uzviy bog‘liq yaxlitlik sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir fikricha, tabiatga o‘ylamasdan aralashish undagi muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy sinergetika atamalari bilan ifodalasak, bunday holatda “jamiyat – tabiiy muhit” tizimida tartibsizlik (entropiya) ortadi va muvozanat izdan chiqadi. Shu sababli inson faoliyatida ekologik ong va uzoqni ko‘zlovchi mas’uliyat muhim mezon bo‘lishi lozim.

Tadqiqotda mutafakkirning tabiat hodisalari inson taqdirini belgilaydimi, degan masalaga munosabati ham tahlil qilingan. Beruniyning bu masaladagi qarashlarida ilmiy, empirik va ratsional yondashuv yaqqol ko‘rinadi. Inson taqdiri osmon jismlari tomonidan oldindan belgilanadi, degan tasavvurga u tanqidiy munosabatda bo‘ladi va inson aqli, imkoniyatlari hamda irodasini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Mutafakkir tabiat hodisalari bilan bog‘liq xurofiy tasavvurlarni tajriba orqali tekshiradi. Jumladan, “Mineralogiya” asarida u keng tarqalgan bir rivoyatni keltiradi: “Hikoya qiluvchilarning aksariyati yakdillik bilan zumradga tegishli bir xossa haqida gapiradilarki, bu go‘yo zumradning yorqinligidan unga qaragan zaharli ilonning ko‘zi oqib tushar emish”[32]. Beruniy bu da’voni to‘qqiz oy davomida, issiq va sovuq paytlarda ko‘p marta sinab ko‘radi va zumrad ilonning ko‘ziga hech qanday ta’sir qilmaganini aniqlaydi[33]. Shu tariqa u bu afsonaviy tasavvurning asossiz ekanini tajriba yo‘li bilan isbotlaydi.

Dissertatsiyada Abu Rayhon Beruniyning tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikka doir qarashlari, inson borlig‘ining tabiiy-moddiy shart-sharoitlari, ekologik-falsafiy mushohadalari hamda tabiiy hodisalarning inson taqdiriga munosabati zamonaviy sinergetik metodologiya vositasida tahlil etilgan va asosiy nazariy natijalar quyidagi bandlarda o‘z ifodasini topgan:

- *jamiyat va inson borlig‘ining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy asoslari.* Beruniy ijtimoiy hodisalarni tabiat qonuniyatlari bilan uzviylikda tushunib, jamiyatning vujudga kelishi va birlashuvini, eng avvalo, insonning hayotiy ehtiyojlari hamda o‘zini himoya qilish zarurati bilan izohlaydi. Mutafakkir mehnatni ijtimoiy tuzilmalar barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida baholab, zo‘rlik va majburlashga asoslangan mehnatni qoralaydi hamda odillik tamoyiliga tayangan badal va haq to‘lash tizimini ilgari suradi. Inson qadri va martabasi nasab yoki ajdodlar xizmati bilan emas, balki shaxsiy fazilatlar, aql, bilim hamda jamiyatga qilingan real xizmat bilan belgilanishi asoslanib, boshqaruvning asl mohiyati hokimiyatparastlik emas, balki xalq manfaatiga xizmat qilish, adolat o‘rnatish va mazlumlarni himoya qilishda ekani isbotlab beriladi.

- *tabiiy muhit va inson munosabatlarining talqini.* Mutafakkir tabiatni inson faoliyati bilan chambarchas bog‘langan ochiq, o‘zgaruvchan va bir butun dinamik tizim sifatida talqin qiladi. Beruniy insonlarning tashqi qiyofasi, tabiati va axloqidagi tafovutlarni faqat nasab bilan emas, balki ular yashaydigan hududning suvi, havosi, tuprog‘i va umumiy geografik muhitining kompleks ta’siri bilan asoslagan. Shuningdek, u tabiatda har bir hodisaning o‘z sifat va miqdor me’yori

[32]Beruniy Abu Rayhon. Kitob al-Jamohir fi ma’rifat al-javohir / Tarj. A. Qayumov. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 150.
[33]Beruniy Abu Rayhon. Kitob al-Jamohir fi ma’rifat al-javohir / Tarj. A. Qayumov. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B.151.

mavjudligini koʻrsatib, tabiiy resurslar (yer osti boyliklari, suv, minerallar)dan shaxsiy manfaat yoʻlida meʼyorsiz foydalanish ekotizim muvozanatini izdan chiqarishini va kelajak avlodga nisbatan zulm boʻlishini uqtirgan.

- *astronomiya va munajjimlikni farqlashning naturfalsafiy asoslari.* Beruniy samoviy hodisalarni inson taqdiri bilan bogʻlovchi munajjimlik (astrologiya), folbinlik va irratsional daʼvolarga qarshi keskin ilmiy pozitsiyada turgan. Mutafakkir osmon jismlarining holati va falak harakati insonning baxti yoki baxtsizligini belgilay olmasligini, koinotdagi jarayonlar obyektiv fizik qonuniyatlarga boʻysunishini tabiiy-ilmiy dalillar vositasida koʻrsatib bergan. Uning astronomik bilimlarni matematik hisob-kitob va empirik kuzatuvga asoslab, taqdir masalasida inson hayotida aql, bilim, iroda va erkin faoliyatning hal qiluvchi oʻrnini eʼtirof etishi astronomiyani soxta munajjimlikdan chegaralashning muhim metodologik asosi boʻlib xizmat qilgani dalillangan.

- *tabiat va jamiyat aloqadorligining mohiyati.* Beruniy qarashlarida tabiat ham, ijtimoiy hayot ham statik holatda emas, balki muayyan qonuniyatlar asosida toʻxtovsiz oʻzgarib boruvchi yaxlitlik sifatida namoyon boʻladi. Tabiatdagi qarama-qarshi kuchlar muvozanati, suv va yer qatlamlarining asrlar davomidagi evolyutsiyasi, jamiyatdagi nomuvozanatlikdan yangi tartib va adolatli muhitning shakllanishi kabi gʻoyalar dinamik muvozanat qonuniyatlari bilan mazmunan mushtarak ekanligi retrospektiv tahlil orqali asoslangan.

Mutafakkir turklar orasida tarqalgan “yomgʻir chaqiruvchi tosh” haqidagi eʼtiqodga ham shunday yondashadi. Ar-Roziy keltirgan rivoyatni bayon qilgach, u bunday tosh yordamida yomgʻir yogʻdirishga vaʼda bergan kishini sinovdan oʻtkazadi, ammo sinov hech qanday natija bermaydi. Beruniyning xulosasiga koʻra, bu hodisaga toʻgʻri qarashni togʻlarning joylashuvi, shamollarning yoʻnalishi va dengizlardan keladigan bulutlarning harakatini oʻrganish orqali hosil qilish mumkin[34]. Demak, Beruniy tabiat hodisalarini sirli kuchlar yoki ramziy belgilar orqali emas, balki tabiatning oʻz qonuniyatlari asosida tushuntirishga intilgan. Sinergetik nuqtayi nazardan bu yondashuvni mahalliy va global omillarning oʻzaro bogʻliqligini eʼtirof etish bilan zamonaviy ilmiy tushunchalar asosida qiyoslash mumkin.

Tadqiqotda Beruniy naturfalsafasida tabiat, inson va jamiyat oʻzaro bogʻliq, tarixan oʻzgarib boruvchi yaxlitlik sifatida talqin etilishi asoslangan. Inson tabiat qonuniyatlariga boʻysunsa-da, aqli va faoliyati orqali muhitga faol taʼsir koʻrsatadi. Jamiyat barqarorligi esa adolat, mehnat, bilim va axloqiy masʼuliyatga tayanadi. Beruniyning tabiat tartibini buzish oqibatlari haqidagi mulohazalari uning merosidagi ekologik-falsafiy mazmunni ochib beradi. Munajjimlik va xurofiy tasavvurlarni tajriba hamda sababiy izoh orqali rad etishi uning empirik-ratsional metodini tasdiqlaydi. Sinergetik talqinda “ochiq tizim”, “entropiya” kabi kategoriyalar Beruniyning oʻz tushunchalari sifatida emas, metodologik analogiya sifatida qoʻllandi.

Dissertant mulohazalariga koʻra, Abu Rayhon Beruniyning tabiat, inson va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarga oid naturfalsafiy qarashlarida ularning oʻzaro

[34]Beruniy Abu Rayhon. Kitob al-Jamohir fi maʼrifat al-javohir / Tarj. A. Qayumov. – Toshkent: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B.152.

aloqadorligi, sababiy bog‘liqligi va tarixiy taraqqiyot jarayonidagi yaxlitligi muhim o‘rin tutgan. Mutafakkir insonni tabiiy muhitdan ajralgan mavjudot sifatida emas, balki tabiat qonuniyatlariga bog‘liq holda yashovchi, ayni paytda aqliy va amaliy faoliyati orqali atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi faol subyekt sifatida talqin qilgan. Beruniyning tabiat, muhit va inson munosabatlariga oid qarashlarida tabiiy resurslarning inson hayotidagi ahamiyati, geografik va iqlimiy sharoitlarning turmush tarziga ta’siri hamda tabiatdan oqilona foydalanish masalalari muhim o‘rin egallagan. Beruniyning tabiiy hodisalarning inson taqdirini belgilashi haqidagi qarashlarga munosabatida empirik kuzatish, ratsional tahlil va ilmiy dalillash tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etgan. Beruniyning adolat, mehnat, bilim, axloqiy mas’uliyat va inson kamoloti haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari uning tabiat hamda borliq haqidagi naturfalsafiy tasavvurlari bilan mazmunan bog‘liq. Mutafakkirning insonlar o‘rtasidagi hamkorlik, ijtimoiy ehtiyojlar va axloqiy munosabatlarga oid mulohazalari jamiyat barqarorligini ta’minlashda aql, ilm, mehnat va ma’naviy qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

XULOSA

Buyuk qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning tabiat, koinot, inson va jamiyat haqidagi qarashlarini fan tarixida o‘zaro sababiy bog‘langan, dinamik va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi yaxlit naturfalsafiy tizim sifatida tahlil etish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rta asr musulmon Sharqidagi ilmiy tendensiyalar, xususan, tabiiyyunchilik va mashshoiyyunchilik o‘rtasidagi ilmiy aloqalar va sinergetik metodologiya tamoyillariga tayangan holda ochib berish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Beruniy naturfalsafasining vujudga kelishi X asrning so‘nggi choragi – XI asrning birinchi yarmida Xorazm (Kat va Gurganj), Ray, Jurjon hamda G‘azna ilmiy markazlarida kechgan murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqdir. Allomaning ilmiy rivojida ustozi Abu Nasr Mansur ibn Iroq xonadonidagi an’anaviy ta’lim, Xorazm Ma’mun akademiyasidagi ilmiy-ijodiy muhit hal qiluvchi rol o‘ynagan. Mutafakkir dunyoqarashi antik yunon, qadimgi hind, zardushtiy va musulmon Sharqi ilmiy-falsafiy merosining o‘zaro ta’sirida shakllangan. Beruniy bu ta’limotlarni qiyosiy tahlil, empirik kuzatish va matematik hisob-kitoblar vositasida tanqidiy qayta ishlab, mustaqil ta’limot yaratgan.

2. Allomaning naturfalsafiy bilish uslubi o‘z davrida keng tarqalgan sof aqliy-spekulyativ (deduktiv) yoki diniy-sxolastik yondashuvlardan tubdan farq qiladi. U bilish jarayonida empirik kuzatish, o‘lchash, eksperiment, matematik hisoblash va mantiqiy dalillashning uzviy birligini ta’minladi. Mutafakkir uchun tabiiy hodisani shunchaki tavsiflash emas, balki uning miqdoriy parametrlarini aniqlash, o‘lchov asboblari aniqligini oshirish va shaxsiy xatolar ta’sirini hisobga olish shart bo‘lgan. U har qanday nazariy xulosani faktlar bilan tekshirish, qarashlarni qiyoslash va manbalarning ishonchlilik darajasini baholash orqali alohida tabiiy-ilmiy kashfiyotlardan keng qamrovli nazariy umumlashmalarga o‘tish uslubini ishlab chiqqan.

3. O‘rta asr musulmon Sharqi falsafasida mashshoiyyun oqimiga parallel ravishda Demokrit naturfalsafasini davom ettirgan tabiiyyunchilik yo‘nalishi ham kuchli nazariy mavqega ega bo‘lgan. Fazo, vaqt va materiyaning mavjudlik usuli borasidagi bahsda Beruniy tabiiyyun oqimi vakili sifatida substansional konsepsiya tarafdori bo‘lib maydonga chiqqan. Mutafakkirning Ibn Sino bilan Arastuning “Fizika” va “Osmon va olam” kitoblari yuzasidan olib borgan 18 ta masaladan iborat mashhur ilmiy bahs-munozarasi tabiat hodisalarini mavhum metafizik mulohazalar bilan emas, balki jismlarning fizik xossalari, og‘irligi, harakati va o‘zaro ta’siri asosida sababiy tushuntirishga intilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jon va tananing uzviy birligi, inson ruhiy holatining tana mijozi bilan chambarchas bog‘liqligi masalasida tabiiyyun va mashshoiyyun vakillari chuqur konseptual mushtaraklik namoyon etgan.

